



# **БОТАНИКА СОҲАСИДАГИ ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЮТУҚЛАР ВА ДОЛЗАРБ МУАММОЛАР**

**ИЛМИЙ-АМАЛИЙ КОНФЕРЕНЦИЯСИ  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

**2014 йил 11 апрель,  
Самарқанд**





## BAXMAL TOG' EKOSISTEMASIDAGI AYRIM O'SIMLIKLARNING FARMAKOGNOZIK TALQINI VA ULARNING MUHOFAZASI

B. Abduvohidov, U.N. Usanov  
*Jizzax Davlat pedagogika instituti*

O'simliklar olami tirik tabiat uchun alohida ahamiyatga ega. Akademik Volkenshteyn ta'kidlaganidek "O'simliklar olami biosferada tiriklikning uzluksizligini ta'minlovchi tabiiy vakillardir." Ta'kidlash joizki keyingi yillarda o'simliklar olamining insonlar hayotidagi roli tobora ortib bormoqda. Birgina farmatseftik nuqtai nazaridan oladigan bo'lsak, dunyo miqyosida 1500 dan ortiq dorivor o'simliklardan keng foydalanilmoqda. Vatanimiz florasining asosiy qismini tog'li hududlarda tarqalgan o'simliklar tashkil etganligi uchun, bu yerda tarqalgan dorivor o'simliklar ham son jihatidan ustunlik qiladi. Quyida Turkiston tog' tizmasining bir qismi hisoblangan Baxmal tog' ekosistemasida o'suvchi ayrim dorivor o'simliklar va ularning xususiyatlari bilan tanishib chiqamiz.

Qora andiz (*Inula helenium*) Astradoshlar (*Asteraceae*) oilasiga mansub, ko'p yillik, bo'yi 100-150 sm bo'lgan o't o'simlik. Poyasi bitta yoki bir nechta, tik o'suvchi sertuk, yuqori qismi shohlangan. Barg plastinkasi tishsimon qirrali bo'lib, yuqori tomoni siyrak va qattiq tukli bo'ladi. Poyaning yuqori qismidagi barglari bandsiz, pastdagilar esa qisqa bandi bilan poyada ketma-ket o'rnamashgan. Gullari tillarangli bo'lib, savatchaga to'plangan. Savatchalar poya va shohlarning yuqori qismida qalqonsimon yoki shingilsimon gul to'plamini tashkil etadi. Mevasi cho'ziq, to'rt qirrali jigarrang. Savatchaning o'rama barglari cherepitsaga o'xshab joylashgan. Bargchalari tuxumsimon qayrilgan va juda ko'p tuklar bilan qoplangan. Gullarning kosacha bargi tukga aylano ketgan, tojibargi va otaligi 5 tadan, onalik tuguni 1 xonali pastda joylashgan.

Qora andizning ildiz va ildizpoyasi kuzda yoki erta bahorda kovlab olinadi. Ular tuproqdan tozalanib, suv bilan yuviladi, yo'g'on ildiz va ildizpoyalar ko'ndalangiga qirqilib, ochiq havoda ya'ni quyosh nurida quritiladi.

Ildiz va ildizpoyasi tarkibida 1-3% efir moyi 44% gacha inulin va boshqa uglevodlar va oz miqdorda alkaloidlar va benzoat kislotalar hamda saponinlar bo'ladi. Qora andizning quritilgan kesmasidan tayyorlangan kukun, balg'am ko'chiruvchi dori sifatida hamda me'da va ichak kasalliklarida ishlatiladi. Qora andizdan aholi juda keng miqyosida foydalanmoqda. Qora andizdan tayyorlangan kukundan aholi asosan hazm qiluvchi va oshqozon-ichak trakti kasalliklariga qarshi vosita sifatida foydalanishadi. Keyingi yillarda tub joy aholi tomonidan mazkur o'simlikning ildiz va ildizpoyasi ko'plab yig'ib olinishi tufayli, hali soni ko'p bo'lsada, yildan-yilga kamayib bormoqda. Muhofazaning eng qulay choralardan biri aholi orasida ushbu o'simlikning dorivorlik hususiyati o'rnini bosa oluvchi keng tarqalgan o'simliklar qirqmabarg moychechak (*Chamomilla recutita*), tog'rayxon (*Origanum vulgare*), do'lana (*Crataegus laevigata*) kabi o'simliklardan foydalanishni targ'ib qilish hisoblanadi.

Tangut ravochi (*Rheum palmatum*) Torondoshlar (*Polygonaceae*) oilasiga kiradi. Ko'p yillik bo'yi 1,5-2,5 m ga yetadigan o't o'simlik. Ildizpoyasi kalta, ko'p boshli, to'q qo'ng'ir rangli, diametri 4-6 sm bo'lib, undan pastga qarab bir necha yo'g'on, sersuv ildizlar tarqalgan. Barg bandi ko'pincha qizil bo'lib, uzunligi 30 sm ga yetishi mumkin. Barg plastinkasining diametri 75 sm, keng tuxumsimon. Poyasi yo'g'on bo'g'imli, ichi kovak va kam shoxli bo'ladi. Gullari mayda, rovakka to'plangan, oq pushti yoki qizil tojibarglardan iborat. Rovoch birinchi yili 5-7 ta gacha ildizoldi to'pbarglar chiqaradi. Ba'zi tuplari ikkinchi yili, ko'pchilik tuplari esa uchinchi yili poya chiqaradi. Rovoch o'simligi 3-4 yoshga to'lganidan so'ng, kuz oylarida yer ostki qismi kovlab olinadi. So'ngra indiz 10-15 sm dan qilib yo'g'on ildizlar va ildiz poya esa uzunasiga ham qirqi' b quritiladi.

Rovoch preparatlari surunkali me'da-ichak kasalliklarida ichni yumshatish uchun ichak atoniyasida va gaz to'planib qolganda ishlatiladi. Bu preparatlar kam dozada (0,05-0,2) qabul qilinsa ichni qotiradi. Ko'p dozada (0,5-2,0) qabul qilinganda esa ichni yumshatadi.

Rovoch ildizi paroshok va tabletka tayyorlashda maxsulot sifatida ishlatiladi. Rovoch ildizidan yana qaynatma va quruq ekstrakt tayyorlanadi. Bu o'simlikning sersuv barg bandi bahorda



mahalliy aholi tomonidan ko'p iste'mol qilinadi, lekin ildiziga zarar yetkazilmaganligi sababli ko'p ziyon keltirilmaydi. Rovoch ildizidan tayyorlangan kukun an'anaviy tabobatda keng foydalaniladi. Bu o'simlikning muhofazasida uning ildizining ko'plab yig'ib olinishiga yo'l qo'yilmasligini ta'min lash zarur. Baxmal tog' ekosistemi o'simliklar turlariga juda boy. Bu yerda o'suvchi o'simliklarning kam qismidan ilmiy tabobatda foydalaniladi. Bu joyda farmakognozik tekshirish ishlari olib borish natijasida ilmiy tabobat uchun kerakli bo'lgan kimyoviy moddalarni saqlovchi ko'plab o'simliklarni aniqlash mumkin.

Ana shunday o'simliklardan biri an'anaviy tabobatda mahalliy aholi tomonidan juda katta qiziqish bilan foydalanilayotgan "sumbul" nomli o'simlik hisoblanadi. O'simlikning oq ipsimon ildizi yig'ib olib, tabiiy quritiladi. Uni maydalab kukun holatiga keltiriladi. Mahalliy aholi orasida "yoshartiruvchi dori", "sumbul" deb nomlanuvchi bu o'simlik keyingi yillarda juda keng foydalanilmoqda. Bu o'simlikning muhofazasiga kuchli e'tibor qaratish kerak, chunki, ayovsiz ravishda ildizining yig'ilishi natijasida o'simlikning ushbu hududdagi soni tobora kamayib bormoqda. O'simlik an'anaviy tabobatda asosan hazm qiluvchi, oshqozon ichak trakti kasalliklari, shamollash, tinchlantiruvchi, quvvatni oshiruvchi dori vositasi sifatida foydalaniladi.

Shunday qilib, Baxmal tog' ekosistemi boy o'simliklar qoplamidan iborat bo'lib, ayrim turlarning muhofazasiga jiddiy e'tibor berish zarur. Bu o'simliklardan kelgusida farmatseftika va ilmiy tibbiyotda keng foydalanish mumkin.

## FUMARIA VAILLANTII LOISEL. ИЛДИЗ СИСТЕМАСИНING ШАКЛЛАНИШИ

Н.Х.Қаршибоева, Б.У.Ҳайдаров, З.Л.Самандарова

Жиззах Давлат педагогика институти

Шотара-*Fumaria vaillantii* Loisel.-шотарадошлар оиласига мансуб бир йиллик эфемер ўсимлик бўлиб, асосан экинлар орасида, лалми ерларда, адир зонасида кенг тарқалган. У доривор ўсимлик ҳисобланади. Ундан ўсимлик моддалари кимёси институтида гепатит ва аритмия касалликларини даволашда қўлланиладиган «Проталин гидрохлорид» препарати олинган. Ўсимликнинг хом ашё баъзасини таъминлаш учун унинг биологиясини ўрганиш долзарб ҳисобланади.

Биз қуйида тажрибалар асосида шотаранинг илдиз системасини ўрганишни ўз олдимишга мақсад қилиб қўйдик.Ҳар бир ўсимлик илдиз системасининг шаклланиши шу ўсимлик турининг келиб чиқишига ва яшаб турган тупроқ шароитига боғлиқ бўлади. Илдиз системасининг шаклланишини ўз вақтида 3 типга бўлган:

- 1.Ихтисослашган,бир томонлама ривожланган ёки вертикал ҳолатда;
- 2.Универсал-ернинг барча қатламларида ҳам горизонтал, ҳам вертикал томонларга барабар тарқалган;

3.Оралик ёки икки ўртада.

*Fumaria* L. туркуми вакиллари иккинчи, яъни универсал типига мансуб.

Ўсимликлар илдиз системасининг тузилиши кўп жиҳатдан ер остки сувларнинг жойлашишига, тупроқ таркибидаги гумуснинг миқдорига ва тупроқ намлигига боғлиқ. Ер остки сувларнинг жойлашишига қараб илдиз қуйидаги экоформаларга бўлинади:

- а) ер остки сувлари чуқур жойлашган бўлса, ўсимликларда асосий илдиз вертикал ҳолатда ўсиб, яхши ривожланади;
- б) ер остки сувлари унча чуқурликда жойлашмаган бўлса, илдизлар ер юзасига яқинроқ-яқорсимон шаклланади;
- в) ер остки сувлари яқин жойлашган бўлса, илдиз ернинг юқори қатламларида тарқалади.

Тупроқ сернам бўлса, ўсимликлар илдиз системасининг радиуси кичраяди, илдиз бўғизи кискаради, ер устки қисми паст ўсади. Агар ерда намлик кам бўлса, тескари ҳодисалар рўй беради, бундай илдиздаги бўладиган ўзгаришларни кўпчилик олимлар, ўсимликлар илдизларининг сўрувчи қисмларини яхши ривожлантириш билан қурғоқчиликка



## МУНДАРИЖА

## I-шўба.

Ўсимликлар табиий манбаларининг хилма-хиллиги, муҳофазаси ва улардан  
фойдаланиш истиқболлари

Келдиёров Х.А. Профессор Н.А. Амирхановнинг илмий ва педагогик фаолияти хақида.....	3
Тўхтаев Б.Е., Шомуродов Х.Ф. Ўзбекистонда ботаника фанининг устивор йўналишлари .....	6
Ҳамидов Ғ.Ҳ., Махсудова Р.С., Махмудов В.М. Фарғона водийси ўсимликларнинг муҳофазаси.....	8
Юлдашев А.С. Ботаническое ресурсосведение в Узбекистане.....	11
Бўриев С.Б., Рашидов Н.Э., Каландарова Д.С., Кенжаев Ж. Балиқчилик ҳовузларидаги микроскопик ва юксак сув ўсимликлари, улардан балиқчиликда фойдаланиш.....	14
Маълонов Х., Эшонқулов Э.С. Табиий янтоқзорлар ва улардан фойдаланиш истиқболлари.....	15
Махмудов М.М., Халилов Х.Р., Ҳамидов А.А., Ортиқова Л.С., Сипдаров Ш.К., Махмудова Г.М. Биозкологические свойства пустынных кормовых растений в условиях культуры Нуратинских адыров.....	17
Rahmonqulov U., Dadayeva G.S., Sulaymonov X.X. Zaharli, ammo shifobaxsh afsonak o'simligi haqida.....	19
Бешико Н.Ю., Тожибаев К.Ш., Баташов А.Р., Азимова Д.Э. О кадастре объектов растительного мира Джизакской области.....	20
Хайдаров Х.К., Тошпулатов Й., Жалов Х.Х. Создание электронной базы данных гербарии Самаркандского госуниверситета.....	22
Юлдашев А.С., Хўсанов А.Н. Ценопопуляционная характеристика <i>Helichrysum</i> <i>tarasandicum</i> M.Pop.ex. Kirp.....	23
Махмудов А.В., Тўхтаев Б.Е. <i>Crocus alatavicus</i> Regelet Semen. ва <i>Crocus korolkovii</i> Regel Maw. лар баргларининг интродукция шароитида морфобиологик хусусиятлари.....	25
Наралиева Н.М., Сидиқжанов Н.М. Фарғона водийсининг шимолий адирлари - алоҳида ахамиятга эга ботаник ҳудуд сифатида.....	26
Джумаева З. Зиракўтларнинг биохилма-хиллигини сақлаш ва улардан самарали фойдаланиш масалалари.....	28
Abdullayeva N., Almatatova Z. Jizzax viloyati hududida to'plangan etnobotanik ma'lumotlar.....	29
Avalboyev O.N., Rahmonqulov U., Ne'matova M.A. G'arbiy Pomir-Oloy tizmasida uchraydigan <i>Ferula</i> l. turkumi turlarining shifobaxshlik xususiyatlari.....	30
Ишонқулова Д.У., Солиева С.К. <i>Peganum harmala</i> нинг ноёб хусусиятлари.....	32
Кодиров Ф.Ў., Тўрақулова В.Х. Лимон ўсимлигининг асосий хусусиятлари.....	34
Usanov U.N., Abdvohidov B.A. Cho'lda tarqalgan o'simliklarning xilma-xilligi va ularning muhofazasi.....	35
Usmonjonova H.U., Soliyeva S., Qo'ziyeva S. Kovul o'simligining tabiiy zahiralardan oqilona foydalanaylik.....	36
Abdvohidov B., Usanov U.N. Baxmal tog' ekosistemasidagi ayrim o'simliklarning farmakognozik talqini va ularning muhofazasi.....	38
Қаршибоева Н.Х., Хайдаров Б.У., Самандарова З.Л. <i>Fumaria vaillantii</i> Loisel илдиз системасининг шаклланиши.....	39
Эшонқулова Д.С., Имомова Д.А. Эрмон – дардга дармон.....	40
Tojiboyev Sh., Vohidov E., Ashurmatov R. Atmosfera havosining tozaligini saqlashda o'simliklarning tutgan o'rni va gazga chidamlilik darajasi.....	42
Эргашева Х.Э., Юсупов Р.А. Экология и источник формирования водорослей Андижанского водохранилища.....	44





# **БОТАНИКА СОҲАСИДАГИ ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЮТУҚЛАР ВА ДОЛЗАРБ МУАММОЛАР**

**ИЛМИЙ-АМАЛИЙ КОНФЕРЕНЦИЯСИ  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

**2014 йил 11 апрель,  
Самарқанд**